



UDK: 81.1(2)

**Madina BOLLIYEVA,**  
ADU tayanch doktranti  
E-mail: madina\_bolliyeva88@mail.ru

ADU professori, f.f.d. D.Abdullayeva taqrizi asosida

### BADIIY ASARLARDAGI MAKTUBLARNING G‘ARBONA VA SHARQONA IFODASI

Annotatsiya

Roman janri XX asrning boshlarida o‘zbek adabiyotiga kirib keldi. Uning yorqin namunasi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani hisoblanadi. Asar bugungi kunda ham qiymatini yo‘qotgani yo‘q. Asarni hali ham o‘quvchilar sevib mutolaa qiladi. Rus adabiyotida A.S.Pushkinning romanlari ham hozirga qadar sevib o‘qiladi. Mazkur maqolada romanda qo‘llanilgan maktublar tahlil qilingan. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va Pushkinning “Yevgeniy Onegin” she‘riy romani, “Kapitan qizi” romanlaridagi maktublar qiyosiy planda o‘rganilgan. “O‘tkan kunlar” asarida Yusufbek hojining o‘g‘li Otabekka yozgan javob maktubi va romanda turli mazmunda bitilgan 14 ta maktublar tahlil qilingan. Ushbu maktublarning “Yevgeniy Onegin” va “Kapitan qizi” romanlaridagi maktublardan farqlari hamda o‘xshash jihatlari atroflicha tadqiq etilgan. Asardan parchalar keltirilib, fikrlar dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** roman, rus adabiyoti, xat, maktub, qiyosiy tahlil, shaxsiy xatlar, qahramonlar ruhiyati, tarixiy voqealik.

### ЗАПАДНОЕ И ВОСТОЧНОЕ ВЫРАЖЕНИЕ БУКВ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Аннотация

Жанр романа вошел в узбекскую литературу в начале XX века. Ярким примером тому является роман Абдуллы Кадири “Минувшие дни”. Работа не потеряла своей ценности и сегодня. Произведение до сих пор любимо читателями. В русской литературе романы А.С.Пушкина до сих пор читаются с любовью. В данной статье анализируются буквы, использованные в романе. На сравнительном уровне изучаются “Минувшие дни” Абдуллы Кадири, поэтический роман Пушкина “Евгений Онегин”, письма из повести “Капитанская дочка”. В “Минувшие дни” анализируется ответное письмо Юсуфбека-хаджи Отабеку и 14 писем, написанных в разных контекстах романа. Подробно исследованы отличия и сходства этих букв от букв в романах “Евгений Онегин” и “Капитанская дочка”. Приводятся выдержки из работы и доказываются мнения.

**Ключевые слова:** роман, русская литература, письмо, письмо, сравнительный анализ, личные письма, психика героев, историческая действительность.

### WESTERN AND EASTERN EXPRESSION OF LETTERS IN ARTISTIC WORKS

Annotation

The novel genre entered Uzbek literature at the beginning of the 20th century. A vivid example of it is Abdulla Qadiri's novel “The Past Days”. The work has not lost its value even today. The work is still loved by readers. In Russian literature, A.S. Pushkin's novels are still read with love. This article analyzes the letters used in the novel. Abdulla Qadiri's “Past Days” and Pushkin's poetic novel “Eugene Onegin” and letters from the novels “Captain's Daughter” are studied on a comparative level. In “O‘tkan Kunlar” the reply letter written by Yusufbek Haji to Otabek and 14 letters written in different contexts in the novel are analyzed. The differences and similarities of these letters from the letters in the novels “Eugene Onegin” and “The Captain's Daughter” have been thoroughly researched. Excerpts from the work are quoted and opinions are proved.

**Key words:** novel, Russian literature, letter, letter, comparative analysis, personal letters, psyche of heroes, historical reality.

**Kirish.** Adabiyot millatimizning tarixidan, uzoq o‘tmishidan, bosib o‘tgan mashaqqatli umr yo‘llaridan hikoya qiladi. Unda biz turli voqealarni, taqdirarni va turli-tuman xarakterga ega bo‘lgan insonlarni uchratishimiz mumkin. Badiiy asarlar yordamida insonlarning baxtli yoki ayanchli taqdirlerini, ong osti va ruhiy kechinmalarini hamda ziddiyatlarining guvohi bo‘lamiz. Qahramonlarning taqdiralaridan saboq olamiz, ba‘zida esa afsuslanamiz. Xullas, badiiy asar hayotning va inson ko‘nglining eng nozik rassomidir. Unda qalb og‘riqlari, chigal tuyg‘ular, umidsiz manzillar rangdor bo‘yoqlarda tasvirlanadi.

Bizga ma‘lumki, romanchilik o‘zbek adabiyotiga XX asr boshlarida kirib kela boshlagan. Eng sevimli adiblarimiz A.Qodiriy, Cho‘lpon, Oybeklar roman janrining eng mukammal ko‘rinishlarini yaratib, xalqning ko‘nglidan joy olib ulgurishgan. Ular yaratgan romanlarda o‘zbek millatining ayanchli o‘tmishi, milliy urf-odatlarini hikoya qilinadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bugungi kunga qadar romanlar juda ko‘p tahlil va tadqiq qilingan. Romanning syujeti, kompozitsiyasi, obrazlari kabi badiiy unsurlar ko‘p bora munozaralarga uchrab, turli risolalarning yaratilishiga sabab ham bo‘lgan.

Roman tahliliga kirishishdan oldin:

1. Maktub o‘zi nima?

2. Badiiy asarlarda maktub qanday funksiyalarni bajaradi?

3. G‘arb va Sharq adabiyotidagi maktublarning o‘xshash hamda farqli jihatlari qanday? degan savollarga e‘tibor qaratamiz.

“Xat – ijtimoiy-siyosiy hayotda ham, shaxsiy hayotda ham g‘oyat muhim hodisadir. Hukmdorlar o‘rtasidagi siyosiy yoki diplomatik maktublar butun-butun davlatlar hayotida muayyan rol o‘ynagan. San‘at madaniyat vakillari o‘rtasidagi maktublarda muhim ilmiy, ma‘naviy-ma‘rifiy masalalar o‘rtaga tashlangan va hal etilgan. Shaxsiy maktublar esa xodimlar o‘rtasidagi do‘stlik, mehr-muhabbat, sadoqat in‘ikosidir. Hayotda uchraydigan mana shu xat turlarining barchasi badiiy adabiyotga olib kiritilgan” [1].

Demak, maktublar hukmdorlar, san‘at arboblari va do‘stlar orasida o‘zaro aloqa vositasini bajargan. Maktublarni biz siyosiy, ilmiy va shaxsiy maktublarga ajratib tahlil qilishimiz mumkin.

O‘zbek adabiyotida ilk roman hisoblanmish “O‘tkan kunlar”da ham maktublarga ko‘plab o‘rinlarda murojaat etilgan. Birgina shu asarning o‘zida jami 14 ta turli mazmundagi maktublar yozilgan. G‘arb adabiyotida esa o‘zining betakror asarlari bilan o‘chmas iz qoldirgan yozuvchilardan biri bu A.S.Pushkindir. Rus adabiyotini A.S.Pushkinning yorqin asarlarisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu serqirra ijodkorning she‘riy va nasriy asarlarida maktublarning turli ko‘rinishlarini uchratishimiz mumkin. Masalan: “Yevgeniy Onegin” she‘riy romanining asosiy qismlarini maktublar tashkil qiladi. Romanda

qahramonlarning eng nozik qalb kechinmalari va iztiroblari maktublarda bayon etiladi.

“O’tkan kunlar” romanidagi soxta taloq xati asarda tugun hosil qilib, voqealarning rivojiga sabab bo’ladi. Shu o’rinda biz Yusufbek Hojining o’g’li Otobekka yo’llagan maktubiga e’tibor qaratmoqchimiz. “Ko’zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o’g’limiz mulla Otobekka yetib ma’lum ravshan bo’lg’aykim, Alhamdulillah biz duogo’y padaringiz, mushtipar onangiz va yaqin do’stlaringiz munda Haq taoloning hivzu himoyatida sihat va salomat bo’lib, ko’z nurimizning duoyu jonini subhi shom, balki allatdavom Robbil Alamindan rajo va tamanno etmakdamiz. Janobi Haq bot fursatlarda, yaqin va sayid soatlarda to’kis-tugallik bilan diydor ko’rishmamlakni nasib va ro’zi qilsin. Omin. Yo Robbil Alamin. Va’da so’zimiz, o’g’lim Marg’ilonga sihat va salomat yetish maktubingni olib, Haq taloga shukurlar qildik. Bizning Toshkentdan axqol so’rasang, balki Marg’ilonga ham eshitilgandir. Munda Azizbek qandog’dir bir kuchga tayanib, Qo’qonga qarshi isyon etti. Xazina hisobini olish uchun kelgan devon beklarini o’ldirib, o’rda darvozasiga osdi. Bunga qarshi Qo’qon ham tinch yotmog’on bo’lsa kerak? Bu kun kirovchidan besh ming sipox ila Normuhammad Qushbegining Toshkent ustiga buyurilg’onlig’ini eshitdik. Fuqaroning tag’in qandog’ ko’rguliklari bor ekan o’g’lim!? Kechagina qonlig’ qilichini fuqaroning ustida yurg’izib turg’on Azizbekka uning tig’i zulmi bilan qoniga belanilgan o’g’lining, otasining, onasining, og’asining mazlum gadvasi tuproq ostida hali chirimay turib, bu kun xalq yana Azizbekka o’sha qonxo’rga o’z qoni bilan yamin etdi. Azizbekni o’zining bir tomchi qoni qolgunicha himoya qilishga ont ichdi. Azizbekning buyrug’i bilan kecha o’rda tagiga barcha Toshkent xalqi yig’ilgon. Bu yig’inda ulamolam ham bor, fuzalo ham bor. Xulosa shaharning har bir sinfidan halq holir edi. Azizbek o’rda qorovulxonasidan turib, fuqaroga salom qildi. Azizbekning salomiga musharraf bo’lg’uvchilarning ko’zlaridan yoshlar oqmoqda edi. O’g’lim, sen bir qadar oq bilan qorani ajrata olasan. Yozg’onlarimni diqqat bilan o’qi. Azizbek fотиha berdi. Xalq urush hoziriligiga kirishdi. Ana o’g’lim, bizning xalqning holiga yig’lashni ham bilmaysan, kulishni ham bilmaysan. Har holda Toshkent ustiga yana qonlig’ bulutlar chiqdi. Ishning oxiri nima bilan tinchlanar bu bir Xudogagina ma’lum. Boshqa so’zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o’tay. Siyosat to’g’rilarida o’ylabroq so’yla, arzimagan sabablar bilan halok bo’lgan jonlarni hamisha ko’z oldingda tut. Bu tinchsizlik bosilmaguncha Toshkentga kelmasligingni maslahat beraman. Toshkent tinchlangandan kiyin agar salomat bo’lsam, o’zim xabar yuborurman. Munda barcha yoru do’st salomatdur. Mendan Hasan aliga salom ayt. Addoyi otang Yusufbek hoji. Toshkent yigirma yettinchi dalv oyida 1264-yilda yozildi”[7].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Nazariy jihatdan olib qarasaq, bu maktub shaxsiy xatlarga kiradi. Bunda ota o’z o’g’liga o’zining ichki o’ylarini, havotirli qarashlari va sog’inchini ifoda qiladi. Maktubning mazmuni orqali:

1. Yusufbek hojining faqatgina o’ziga xos bo’lgan xarakter xususiyatlarini anglash mumkin (mehribon va ko’ngilchan ota. O’z xalqiga nisbatan jonkuyar va fidokor davlat arbobi. Bugunidan saboq chiqarib, o’z xalqining ertasidan xavotirga tushayotgan shaxs).

2. Maktub tarixiy voqealardan xabar beruvchi vosita sifatida namoyon bo’lgan (o’sha davrdagi Toshkent Bekligi va Qo’qon xonligi o’rtasidagi ziddiyatli munosabatlar, qipchoq va qorachoponlilar o’rtasidagi janglar, tarixiy shaxslar Azizbek va Musulmonqullarga ta’riflar).

3. Maktubning pand-nasihat shaklini ham ko’rishimiz mumkin (maktub so’ngidagi Yusufbek hojining xavotiri va o’g’li Otobekka bergan maslahatlari).

Yusufbek hoji maktubining mazmunidan asar qahramonlarining xarakter xususiyatlarini va tarixiy voqelikni anglashimiz mumkin.

Ushbu maktubning badiiy asardagi shakli va vazifasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak:

1. Maktub shakliga ko’ra, badiiy asarda xabar beruvchi va qahramonlarni o’limdan qutqaruvchi vosita vazifasida keltirilgan

(tarixiy jarayonlardan Otobekni xabardor qiladi va Otobek hamda Mirzakarim qutidorni o’limdan saqlab qoladi).

2. Qahramonlar ruhiyatida jasorat va laganbardorlik tuyg’ularini shakllantirish uchun xizmat qilgan (Kumush ruhiyatida jasorat tuyg’usini o’yg’otadi va najot farishtasiga aylantiradi. Musulmonqul ruhiyatidagi g’alamislik, laganbardorlik kabi salbiy his (illat)larni ochib berishda qo’llaniladi).

Yusufbek hojining asardagi ilk maktubi qahramonlarning hayotiy kechinmalarini tasvirlab beribgina qolmasdan, balki badiiy asarning davomiyiligini ham ta’minlab beradi.

Badiiy asarlarda ko’plab muhim funksiyalarni bajaruvchi maktublar o’zi qachon paydo bo’lgan?

Bu detalning ilk namunalarini qaysi millat asarlarida uchratishimiz mumkin?

Yuqoridagi savollarga javob topish uchun G’arb adabiy olamiga e’tibor qaratishimiz lozim. Zero, roman, qissa va hikoya kabi bir qator janr namunalari, eng avvalo, G’arb adabiyotida uchraydi.

**Tahlil va natijalar.** Bundan tashqari adibning “Kapitan qizi” romanida ham maktublarning ba’zi ko’rinishlarini uchratishimiz mumkin. Bu romanda ham ilk maktub Andrey Pitrovichning o’z o’g’liga yozgan maktubidir. “Mening o’g’lim Pyotr Andreyevich Grinevga. Orenburg guberniyasining Belogorsk qal’asiga. Mening o’g’lim Pyotr, sening kapitan Mironovning qizi Mariya Ivanovnaga uylanish uchun bizning roziligimizni so’rab yozgan maktubingni o’yning o’n beshinchi sanasida oldik. Ya’ni bir oy oldin. Men bu nikohga o’z roziligimni berishni istamayman. Buning o’rniga tezroq sening oldingga yetib olishni va yaxshilab ta’ziringni berish niyatidaman. Sening ofetserligingga ham qaramasdan, yosh boladek jazolashni xohlayman. Qo’lingga berilgan qurol vatanni himoya qilish uchun berilgan. Duelda qatnashish uchun emas. Zudlik bilan Andrey Karilovichga xat yozib, seni Belogorsk qal’asidan ham uzoqroqqa yuborishini iltimos qilaman. Xayolingdagi chalkash o’ylar olis yurtlarda o’tib ketar deb umid qilaman. Sening yaralanib, ancha vaqt behush bo’lib yotganliging haqidagi xabarni eshitgan onang bu dardni ko’tarolmay yotib qoldi. Allohdan sening tezroq tuzalib, to’g’ri yo’lga qaytishingni so’rab qolaman. Garchi bunga ishongim kelmasa ham! Sening otang A.G.” [3].

Yuqorida keltirilgan maktubning mazmuniga va shakliga e’tibor qaratadigan bo’lsak, Yusufbek hojining maktubidan tubdan farq qiladi. Yagona o’xshashlik jihati maktubning shaxsiy xatlar qatoriga kirishidadir.

Maktub mazmun jihatidan quyidagilarni o’z ichiga oladi:

1. Qahramonlar o’rtasidagi o’zaro munosabatlarni (Otaning o’z o’g’liga nisbatan o’ta qattiqqo’lligi va o’g’lining itoatkorligini) ko’rishimiz mumkin.

2. Maktub mazmuni orqali qahramonlarning ruhiyatida shakllanib borayotgan qarama-qarshi tuyg’ularining guvohi bo’lamiz (Otaning ruhiyatida harbiylarga xos bo’lgan jahldorlik, sovuqqonlik hislari namoyon bo’lsa, Pyotr Andreyevichning ruhiyatida esa qo’rquv, xavotir, ikkilanish kabi tuyg’ularning guvohi bo’lamiz. Asardagi ushbu maktub javob xati vazifasini bajargan).

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, G’arb va Sharq millatlari, urf-odatlar, tarixi, madaniyati bilan bir-biridan farq qilib turadi. Shu jumladan, G’arb va Sharq yozuvchilari tomonidan yaratilgan badiiy asarlarda ham farqli hamda o’xshash jihatlarni ko’rishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan ikki maktub ham Otalar tomonidan o’z farzandlariga yuborilgan shaxsiy xatlar edi. Yusufbek hojining Otobekka yozgan maktubida milliy ruhni, farzandga nisbatan ham hurmatni, mehrni va aynan otalarga xos bo’lgan vazminlikni ko’ramiz. Andrey Pyotrovichning o’g’liga yozgan maktubida jahldor, qattiqqo’l va sovuqqon ota obrazining guvohi bo’lamiz. G’arbone va Sharqona uslublarda yaratilgan ushbu xatlar bir-biridan tubdan farq qilsa ham, ularning badiiy asarda bajaruvchi funksiyasi yagonadir. Har ikkala asarda ham xatlar ma’lumot yetkazish uchun xizmat qilgan.

Maktublar xoh G’arb adabiyotining, xoh Sharq adabiyotining namunasi bo’lsin, ular tarixiy voqelikdan, insonning iztiroblaridan, ong osti kechinmalaridan xabar berib turadi.

1. Базаров О.Ч. Ўзбек адабиётида эпистоляр жанр тараққиёти. – Тошкент, 2010.
2. Навоий А. МАТ. Ж. 20. 14-жилд. – Тошкент: Фан, 1998. – 123 б.
3. Пушкин А.С. Капитан кизи. – Тошкент: Фан, 1999.
4. Рогинская О. Эпистолярный роман. – Москва, 2001. – С. 56.
5. Урнов Д. Эпистолярное литература. Краткая литературная энциклопедия. Том 9. Сир 56. – М., 2000.
6. Ўзбек мумтоз адабиёти. – Тошкент: ФАН, 2001. – 34 б.
7. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент, 2001.